

## TANQIDIY FIKRLASH ASOSLARINING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika magistranti*

*[erkinboyevmuhammadqodir403@gmail.com](mailto:erkinboyevmuhammadqodir403@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: PhD. Dumarov Mashxurbek*

*Erkinboyev Muhammadqodir Nodirbek o'g'li*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Taqidiy fikrlash asoslari” ning O'zbekiston ta'lif tizimining Bir qancha jarayonlarda ya'ni boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lifda tutgan o'rni nazarda tutilib yozilgan va muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, spekulyatsiya, ma'lumotlarni filtirlash, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, boshlang'ich ta'lif, o'rta ta'lif, oliy ta'lif.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается узбекская версия «Основ критического мышления».

Роль системы образования в различных процессах, а именно в начальном, среднем и высшем образовании, была описана и обсуждена.

**Ключевые слова:** критическое мышление, спекуляция, фильтрация данных, логическое мышление, анализ данных, начальное образование, среднее образование, высшее образование.

**Abstract:** This article discusses and discusses the role of "Fundamentals of Critical Thinking" in several processes of the Uzbek education system, namely primary, secondary, and higher education.

**Keywords:** critical thinking, speculation, data filtering, logical thinking, data analysis, primary education, secondary education, higher education.

### **KIRISH**

Ta'lif – shaxslarning yuqori turuvchi ehtiyoji, bu insonlarning rivojlanishini kafolatlaydigan jarayondir. Meyer (1976) fikriga asosan ta'lifning maqsadi - bu shaxsnin tarbiyalash, yordam berish, uning ichida allaqachon mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solish. Sifatli ta'lif o'quvchilarga yo'l ko'rsatishi va qanday o'rganish kerakligi haqida xabardor qilishi kerak. O'quvchilar o'rgangan narsalarini va o'qitish usullarini baholash bilan birga, o'zlarini namoyon qiladilar va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ega bo'ladilar. (Emir, 2009)

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ayni rivojlanib borayotgan ayni kunlarda eng birlamchi masala yaxshi fikrlaydigan insonlarni

Ishlab chiqishdir. XXI asrning tinimsiz o'zgarishlariga duch kelgan paytda muammolarga javob topish uchun uchun o'quvchilar spekulyatsiya qobiliyatlarini yanada ko'proq egallab olish, oqilona qaror qabul qilishi va ijtimoiy murakkab muammolarga yechim o'ylab topa olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularni amalga oshirish uchun ta'lim sohasiga alohida ahamiyat berish darkor. O'qituvchilar o'zlarining metod, strategiya va ro'lllarini qaytadan ahamiyat berish lozim. Shuningdek, ma'lumotlar va yozuvlarni yig'ishdan ko'ra, o'quvchilarning intellektual salohiyatlarini o'stirish lozim.

O'zbekistonda ta'lim tizimini qaytadan ko'zdan kechirib, uni xalqaro standartlargamuvoifiqlashtirish, nafaqat O'zbekiston mehnat bozori, balki xorijiy mamlakatlar mehnat bozorlari standartlariga mos malakali ishchilarni yetishtirish eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Biz O'zbekistonda uchinchi Renessansni barpo etadigan salohiyatli kdarlarni jamiyatga yetkazib berishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda O'zbekiston ta'lim tizimi qarshisida juda ko'plab vazifa va maqsadlar yotibdi. Aytadigan bo'lsak, maktabgacha va boshlang'ich ta'limni mukammallashtirish, umumta'lim maktablari siyosatini qayta ko'rib chiqish va ularni ayni zamonaviy ta'lim tizimiga moslashtirish, oliv ta'lim tizimini dunyo tan olgan qonun qoidalar asosida qaytadan barpo etish, ularni xalqaro dunyo tan olgan top universitetlar ro'yxatiga kiritish muhimeng dolzarb masala bo'lishi darkor.

Yurtimiz ta'lim tizimini yana takomillashtirish uni xalqora talablarga mos darajaga olib chiqish eng oliv maqsadimiz bo'lmog'i lozim. Buni amalga oshirish uchun bizga yuksak darajaga, kuchli intellektual imkoniyatlari keng o'qituvchilar bilan pog'onada, dunyoqarashi rivojlangan, noodatiy fikrlash istedodiga ega bo'lgan, ma'lumotlarni tahlil qilib tahlil asosida masalaga to'g'ri yondashuv bera oladigan va malumotlarni tanqid qila oladigan yoshlarni va kadrlarni yetishtirishimiz eng birinchi maqsadimiz bo'lishi lozim. Yosh avlodni bunday fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun ularga ta'limning turli shakillarida “Taqidiy fikrlash asoslari” (Critical thinking) nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar dunyoga kelgandan boshlab o'zidan yuqori kishilardan o'zлari hali anglab bo'lмаган va bilmagan barcha ma'lumotlarni so'rashga vas hu orqali savollariga jaob topishga juda qiziqadilar. O'z navbatida ular ko'plab ma'lumotlarni o'qiydi qabul qiladi va tahlil qilishadi. Boshlang'ich maktab darajasiga borganda ularda tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanayoitgan jarayon va davrda bo'ladi. Bu fikrlash qobiliyatini o'stirish va mashq qilish ularni yanada tanqid qilish mahoratiga ega bo'lgan sahs sifatida yetishishlarda muhim kalit va omil hisoblanadi. Noodatiy fikrlash va eng to'g'ri qaror qabul qiladigan, tanqid orqali barcha muammolarni samarali hal qila oladigan shaxs sifatida voyaga yetkazish ta'limni ustuvor vazifasi bo'lishi kerak, va bu odad yoshlikdan boshlanmog'i lozim. Tanqidiy fikrlashni amalga oshirish bolalar rivojlanishining ajralmas bo'lagidir, ularga atrofdagi dunyonи

anglashga yordam beradi. Bu ularga savollar berishga va baho berishga yordam beradi. Hodisa va jarayonlarni mantiqiy tushinishga harakat qilishadi. Tanqidiy fikrlashga mos dastabki ta'lim bolalarda kashf qila olish, o'xshashliklarni aniqlash, fantaziyalarni qaytadan qurish, to'g'ri va aniq variantlarni o'rta ga tashlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. Bu esa ularga olgan ma'lumotlarini saralashga va eng maqbul variantlashga yordam beradi. Shuning uchun ham "Taqidiy fikrlash asoslari" ni o'rganish boshlang'ich ta'limdan boshlanishi kerak.

"Taqidiy fikrlash asoslari" o'rta ta'limda ham juda muhim omil sifatida qaraladi. Ta'limning keyingi bosqichida, u o'quvchilarga olingen bilimlarni kengroq o'ylashga va oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Bundan tashqari u o'quvchilarning motivlari va maqsadlarini yaxshiroq tushinishga yordam beradi.

O'rta maktabdan oliy ta'limga o'tishlari bu ularning to'g'ri qaror qabul qilish va katta hayotga qadam qo'yganda tanqidiy fikrlay olish ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi kerak. Ushbu tayyorgarlik nafaqat o'rta maktabni yuqori darajada o'zlashtirishni talab etadi balki qo'shimcha ko'nikmalarni ham yuqori darajada talab etadi. Conley(2008) Oliy ta'limda esa tanqidiy fikrlash salohiyatiga ega kadrlarni tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Har qanday ish beruvchi dunyoqarashi keng va mantiqan fikrlaydigan, vaziyatlardan oqilona chiqib ketadigan, muammolarni tezda hal qiladigan kadrlarga muhtoj.

Yaxshi tanqidiy fikrlash qobiliyatları ko'plab afzalliklarga ega:

1. Diqqat va kuzatuv shakllanadi;
2. O'z fikrini qanday qilib oson tarzda va tushunarli ravishda yetkazish haqidagi ko'nikma paydo bo'ladi
3. Har qanday vaziyatni boshqarish va tahlil va tanqid qilish qobiliyatları;
4. Talabalarning o'zlarining fikrlash jarayoni haqida tushunchalari yaxshilanadi;
5. Shaxslar o'rtasidagi munosabatda xurmat va e'tibor qozonish;
6. Shaxsiy tanlovlarni oqilona tanlash;
7. Uch yo'nalişdagi savollarga javob berish: Bilish, tushunish va qo'llash.
8. Shaxslararo munosabatlarda tanqidiy fikrlaydigan insonlar ajralib turish imkoniyati.
9. Ta'lim jarayonida hamma fikr bildira oladi.
10. Hamma o'z fikriga ega bo'ladi.

Tanqidiylik darajasi nafaqat insonning bilim va ko'nikmalari bilan, balki uning shaxsiy fazilatlari, aqliy munosabatlari va ko'p jihatdan e'tiqodlari, shu jumladan o'zining "men" ga nisbatan aks ettiruvchi munosabati bilan belgilanadi. , Axloqiy ijtimoiy mas'uliyat, har bir shaxsning individual xususiyatlarini hurmat qilish. Ro'yxatga olingen fazilatlar orasida asosiy o'rnlardan biri tegishli shaxsning haqiqatni

izlashga tinimsiz intilishida, haqiqat uchun tanqid qilishda ifodalangan hukmning xolisligi yotadi

### **XULOSA**

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish maqsadga muvofiqki, zamonaviy O’zbekiston yoshlari tanqidiy fikrlashi orqali yetuk kadr bo’lmog’I lozim. Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, zamonaviy O’zbekiston yoshlari har bir sohada kuchli, intelektual salohiyatlari, mulohazali, olingan ma’lumotlardan oqilona xulosa chiqara oladigan yoshlar bo’lib yetishishlari kerak. Buning uchun ularga “Taqidiy fikrlash asoslari” fani yangi fan sifatida ta’limning turli bosqichlarida uzviylikni saqlagan holda puxta o’rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

### **REFERENCES**

1. The Significance of Critical Thinking Ability in terms of Education. Murat KARAKOÇ İstanbul Aydin University Institute of Social Sciences Turkey. International Journal of Humanities and Social Science Vol. 6, No. 7; July 2016
1. Fostering critical thinking skills in secondary education to prepare students for university: teacher perceptions and practices. Research in Post-Compulsory Education. Volume 25, 2020-Issue 4
2. Benefits of using critical thinking in high education. A. K. Alwali. International technology education and development conference.
3. <https://ilmijyanjumanlar.uz/>